

"Adiblar xiyoboni"ga sayr



10.02.2023

"Adiblar xiyoboni"ga sayr

Bugun poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni"da buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning 582 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda ilm-fan namoyondalari, ziyorilar, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, adabiyotshunos olimlar, barcha oliy ta'lif muassasalari ishtirok etishdi. Ushbu tadbirda "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" Milliy tadqiqotlar Universiteti jamoasi hamda talaba-yoshlari faol eshtirok etishdi. Maydonda o'rnatilgan monitorda mutafakkir shoirning hayoti va ijodiga oid videoroliklar, g'azallari va hikmatli so'zlaridan namunalar namoyish etildi. Tadbirni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid olib, mamlakatimizda Alisher Navoiy merosini o'rganish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotganini ta'kidladi. Navoiyshunos olimlar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari esa Alisher Navoiy g'azallarining chet tillar, xususan, nemis tiliga tarjimalari haqida to'xtalib, shoir g'azallaridan birini nemis tilida o'qib berishdi.



Tadbirda Universitetimiz jamoasi hamda talabalar barcha ishtirokchilari qatorida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yishdi. Shu yerda yozuvchi va shoirlar, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirokida adabiyot va kitobxonlik tadbirlari ham o'tkazildi. Ushbu tadbir davomi sifatida Universitetining "Yer resurslari va kadastr" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini X.Eshova, fakultet tyutorlari hamda iqtidorli talaba-yoshlari atoqli ijodkorning haykali poyiga gullar qo'yilishdi. Fakultetimiz talaba-yoshlari tomonidan "Abdullahxonlik" she'riyat kechasi adabiyot shinavandalarini mushoiraga chorladi. Unda shoir ijodidan namunalar, Vatan haqidagi she'rlar aytildi.

"Yer resurslari va kadastr" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti